

PUDRAT SHARTNOMASI

9«11»2022 yil.

2165-2-35-TB/2022-son

Keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan «**JONDOR TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI**» nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi direktor **Raxmatov O.Z** bir tomondan va keyingi o'rnlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan «**OOO MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI**» nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi raxbar **Hayitova J.B** ikkinchi tomondan «*Jondor tuman tibbiyot birlashmasi xududida toza suv ombori, suv minorasi va suv tozalash filtrlarini o`rnatish*» ga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada tariflar kullaniladi:

"ijro hujjatlari": - naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun ma'sul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritolgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiya va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim ma'suliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risida dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risida dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

"qurilish maydoni": Mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Obyektning qurilish maydoni chegarasini ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilangan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi.

"vaqtinchalik ishlar": Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlar bajarish uchun zarur zarur bo'lgan har tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar.

"berkitilgan ishlar": sifati va yakunligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lмаган keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnomani narxini bo'lib chiqish: ishlarning har bir bosqichi yoki turlari qiymatining aniq belgilangan holda shartnoma bo'yicha obyektni umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga «*Jondor tuman tibbiyot birlashmasi xududida toza suv ombori, suv minorasi va suv tozalash filtrlarini o`rnatish*» ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lojni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha pudratchi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (**2022 yil "04" noyabr dagi "170606" son bayonnomasi**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda – **878 700 000 (Sakkiz yuz yetmish sakkiz million yetti yuz ming so'm)** ni tashkil etadi.

4. Ishlar kiymati uzel-kesil xisoblanadi va keyinchalik kayta kurib chikilishi mumkin emas, kuyidagi xollar tbundan mustasno;

qurilish qiymati va ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holati sabab bo'lganda;

ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

obyektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6 Tegishli asoslar mavjud bo'lganda o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatları

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 20%ni o'zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash;

- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish tavakkalchiligini sug'urta qilish.

Mazkur shartnoma bo'yicha obyektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash;

qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash.

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatları

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi:

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obyekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda kurib chikish va karor kabul kilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan pudratchiga 3 ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida pudratchiga pudrat ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddati

10. Shartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab:

keyinchalik EAV ga konvertasiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi:

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtin ishlarni boshlangan kundan e'tiboran 30 kun (**30.11.2022**) yilni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlар va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlarni umumiy qiymatining 30 % miqdorida, dastlabki ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 15 foizdan) bulgan avans o'tkazadi, bu – **263 610 000 (Ikki yuz oltmis uch million olti yuz o'n ming)** so'mni tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (3-ilova)

16. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlarni sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq obyektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatning 95 % gacha doirasida amalga oshiriladi.

17. Obyektning shartnomaviy joriy qiymatning qolgan qismi Buyurtmachi va Pudratchi o'rtaсидаги uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va obyekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin yoki mazkur shartnomada belgilangan kafolat muddati (bir yil) tamom bo'lgandan keyin ishlarni qiymatining 5% gacha miqdorida, amalga oshiriladi:

18. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obyektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

19. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarini shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarni uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

Mazkur obyekt buyicha tulov Sud faoliyatini ta'minlash departamenti Buxoro viloyat xududi bulimi tomonidan va 2022 yil uchun mazilli dasturga asosan amalga oshiriladi.

- Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda "Buyurtmachi" to'lov uchun majburiyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

VIII. Ishlarni bajarish

20. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ishlarni uchun muvofiqligini tekshiradi.

21. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

22. Pudratchi Texnik auditor ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувчи masalalarni hal kilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

23. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limda ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

24. Pudratchi obyektda ishlarni olib borish tartibini qurilishda Davlat nazorat inspeksiyasi bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

25. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnomasi bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

27. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnomaga imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va obyektni bog'lash (privyazka) qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

28. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

29. Pudratchi geodeziya bo'lismi ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

30. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikasiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikasiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

31. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikasiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikasiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lismeni hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lismeni kafolatlaydi.

32. Alovida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lismiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va qurilishda Davlat nazorati inspeksiyanini yozma ravishda xabardor qiladi.

33. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilishda Davlat nazorati inspeksiysi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvni dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

34. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

35. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasa javobgar hisoblanmaydi.

36. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelshilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnomaga 35 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

37. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

38. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasiligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikirini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarini qo'riqlash

39. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallaguncha va qurilish tugallangan obyekt Buyurtmachi tomonidan qabul kilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

40. Tiklangan bino va inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar obyekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

41. Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtida mutanosib ravishda uzaytiriladi.

42. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtida cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya qilish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

43. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnomaga bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish

44. Qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan obyektni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

45. Obyektni foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingen kundan boshlab 30 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

46. Pudratchi qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilagan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

47. Qabul qilib olingen paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar

48. Pudratchi:

- barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnomaga shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni;

- loyiha hujjatlari hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikasiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni;

obyektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

59. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismining 0,01 % (foiz) miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlari yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 10 %(foiz) dan oshmasligi lozim.

Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

60. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlari hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 % (foiz) miqdorida jarima to'laydi.

61. Pudratchi obyektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 0,01 % (foiz) miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 10 % (foiz) dan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 0,01 % (foiz) miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 10 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlari bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi

62. Agar bajarilgan ishlari sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ishchi hujjatlariga muvofiq bo'lmasa u holda Buyurtmachi qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasining xulosasi asosida obyektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lмаган ishlari qiymatining 1 % foizi miqdorida undirish huquqiga ega.

63. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

64. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarining boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

65. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alovida shartlar

66. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

67. Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning alovida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

68. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

69. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

70. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlari yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

49. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Obyekt tomining kafolat muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

50. Agar obyektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartarf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

51. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish qurilishda Davlat nazorati inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudaqa murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

52. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilgan holda,

- pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

- buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

54. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish obyekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

55. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

56. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

57. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

58. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon:

- ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa

71. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

72. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 4 nusxada tuziladi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzilari.

BUYURTMAChI:

« JONDOR TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI »

Manzil: M.Torobiy ko'chasi 157-uy

Tel/faks: (65) 58-21-073

x/r 401722860062467073101054003

STIR: 20180783101

OKONX: 91511

Gaznachilik bulinmasi nomi: Jondor
gaznachilik bo'linmasi

Bank nomi: Toshkent sh. Markaziy bank
BBXKKM

MFO: 00014 STIR: 201 122 919

Raxbar:

Raxmatov O.Z

PUDRATCHI:

«OOO MIRDO'STIM BUNYODKOR TAMIRCHI »

Manzil: Jondor tuman Navoiy ko'chasi 30-uy

Tel./faks: +9989

H/r: 20208000005171351001

Bank nomi: « МИКРОКРЕДИТБАНК »

MFO 00108 INN 307089120



Raxbar:

Hayitova J.B

	<p>Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.</p>
Imzolovchi F.I.SH.	ODIL RAHMATOV ZIYODULLAYEVICH
Imzolangan sana	09.11.2022 14:03
Hujjat kodi	DB8453561016
Hulosa kodi	IY6272852106

—sonli shartnomaga
ILOVA

Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (Jondor tuman tibbiyot birlashmasi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish; tovlamachilik qilish; pora sifatida pul to'lash; bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilibshiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (Jondor tuman tibbiyot birlashmasi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni 71 2070464

Telegram-kanali ("@antikorbot");

(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

TOMONLAR:

Bajaruvchi:

«OOO MIRDO'STIM BUNYODKOR TAMIRCHI»

Raxbari J.Hayitova

(F.I.O.)

(imzo)



Buyurtmachi:

Jondor tuman Tibbiyot birlashmasi

Raxbari O.Raxmatov

(F.I.O.)

(imzo)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

IY6272852106

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2.Loyihaning nomi: pudrat shartnomasi tuzish to'g'risda

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Jondor tuman
tibbiyot birlashmasi tomonidan 09.11.2022 yilda kiritilgan.**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

**Jondor tumani yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



A.S.RASULOV

09.11.2022

401722260062467073104057003

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 170606 на приобретение Сув омборларни куриш хизматдари

Способ проведения электронный

код 4233900

Дата 04.11.2022

Время рассмотрения 02.11.2022 11:39

Закупочная комиссия Жондор туман Тиббиёт Бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RAHMATOV ODIL ZIYODULLAYEVICH	Рахбар	Тиббиёт бирлашмаси
Секретарь комиссии	SOBIROVA RA'NO ZO'ROBOVNA	Хамшира	Бирлашма
Член комиссии	MAXRAMOV OYBEK ESHMURODOVICH	Хужалик ишлари мудири	Бирлашма
Член комиссии	G'OYIROV HUSNIDDIN MURODOVICH	хоким ёрдамчиси	Вилоят хокимининг маххалий саноатини ривожлантириш булими
Член комиссии	JO'RAYEV IZZATULLA RAXMATULLAYEVICH	Куриилиш ишлари буйича мухандис	Тиббиёт бирлашма
Член комиссии	XUDOYEV TO'XTAMUROD BOZOROVICH	Бош хисобчи	Тиббиёт бирлашмаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 04.11.2022 года № лота 170606.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по содержанию водохозяйственных систем и сооружений
Подробное описание	Бухоро вилоят Жондор туман Тиббиёт бирлашмаси худудида тоза сув омбори, сув минораси ва сув тозалаш фильтлари урнатиш ишлари
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	880 911 406.00
Стартовая сумма	880 911 406.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ишларни бажариш муддати

Тип: Числовое значение

Описание: Ишларни бажариш муддатини кискартириши ишнинг сифатида акс этмаслиги лозим

Обязательность: Критично

Требование заказчика: В диапазоне: лучше – больше: от 30 до 45 кун

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA MIRCHI	15	45	15	Системная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	45	15	Системная		

Критерий №2 Кафолат муддати

Тип: Числовое значение

Описание: Бажарилган ишларга бериладиган кафолат муддати

Обязательность: Критично

Требование заказчика: В диапазоне: лучше – больше: от 180 до 240 кун

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA MIRCHI	15	240	15	Системная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	240	15	Системная		

Критерий №3 Моддий таъминот

Тип: Бинарное значение

Описание: Талабгор моддий таъминланганлиги ва йиллик маблаг айланмаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA MIRCHI	15	1	13	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	13	Экспертная		

Критерий №4 Обектни куздан кечириши

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш таъмирлаш обектни куздан кечирилганлиги далолатномаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA MIRCHI	15	Курилиш таъмирлаш обектни куздан кечирилганлиги далолатномаси тузилиб имзо печатлаб юкланди	15	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	Тақдим килинди	10	Экспертная		

Критерий №5 Ишчи ходимлари хакида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Maxsus мутахассис ишчи ходимлар булиши зарур ишчи ходимлар сугурта килинганилиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA'MIRCHI	15	1	14	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	10	Экспертная		

Критерий №6 Коррупцияга карши талаблар

Тип: Бинарное значение

Описание: 684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA'MIRCHI	15	1	15	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	15	Экспертная		

Критерий №7 Моддий-техника базаси

Тип: Бинарное значение

Описание: Ишни уз вактида бажариш учун зарурий моддий-техника базаси мавжудлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO STIM BUNYODKOR TA'MIRCHI	15	1	14	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	15	Экспертная		

Критерий №8 Иш тажрибаси

Тип: Бинарное значение

Описание: Шу соҳада олдин килинган ишлар руйхати ва буюртмачилар берган тавсифномалари

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI	15	1	14	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	12	Экспертная		

Критерий №9 Баланс, молиявий хисоблари

Тип: Бинарное значение

Описание: Баланс, молиявий натижалари хисоблари

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI	15	1	15	Экспертная		
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	15	1	14	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI	880 911 406.00	878 700 000.00 UZS	878 700 000.00	00.00	878 700 000.00	01.11.2022 18:17:58	9.79857
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	880 911 406.00	861 000 000.00 UZS	861 000 000.00	00.00	861 000 000.00	01.11.2022 22:52:10	10

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI	86.6664	9.79857	96.46497
BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ	79.3332	10	89.3332

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 170606 от 04.11.2022 года на приобретение Сувомборларни куриш хизматдари определила победителем:

ООО MIRDO`STIM BUNYODKOR TA`MIRCHI
307089120

и резервный исполнитель: BUKHARA DISCOVER BUILDING MChJ (303218208)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	RAHMATOV ODIL ZIYODULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	G'OIYROV HUSNIDDIN MURODOVICH	Согласен	
Член комиссии	JO'RAYEV IZZATULLA RAXMATULLAYEVICH	Согласен	
Член комиссии	XUDOYEV TO'XTAMUROD BOZOROVICH	Согласен	
Член комиссии	MAXRAMOV OYBEK ESHMURODOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП